Materiallar to’plami · Conference Proceedings
QATAG‘ON QURBONLARI: TARIXIY XOTIRA, MILLIY O‘ZLIK VA MA’NAVIY MEROS
10 September – 10 October 2026
UDK 94

Ayol va millat tarbiyasi: jadidchilik harakatining ma’naviy- ma’rifiy konsepsiyasi

Muhlisa Umidjonovna Haydarova*
Farg’ona Davlat Universiteti magistranti
✉ mhaydarova945@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada XIXasrning 2-yarmi XX asr boshlarida jadidchilik g’oyasining tub zamini bo’lgan ayollar va bolalar masalasi ya’ni millat tarbiyasi haqida fikrlar o’rin olgan. Jamiyatda ayollar masalasi zamonasining qaysi pallasida bo’lishlikdan qat’i nazar o’rganilgan, o’rganilayotgan va o’rganilishi yana kerak bo’lgan dolzarb mavzu bo’lib qolaveradi. Chunki jamiyat va millat tarbiyasining xoh yuksalishi bo’lsin xoh zavoli bu ayol tarbiyasiga bog’liqdir.

Kalit so‘zlar

badan tarbiyasi, axloq tarbiyasi, fikr tarbiyasi, uchinchi renessans, ma’rifatli jamiyat, tarbiya, ong, ibtidoiy davr, ijtimoiy hayot, uy tarbiyasi, tashqi muhit, muvozanat

DOI: 10.5281/zenodo.23279225

KIRISH

Tariximizdan va ma’naviyatimizdan malumki har bir millatning saodati, davlatlarning tinch va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga asoslangandir. Agar ayol bilimli bo’lsa, ma’naviyatli bo’lsa o’z farzandini ham o’zligidan kelib chiqib tarbiyalaydi va jamiyatga shunday avlod yetkazib berishga sababchi bo’ladi. Shuning uchun jadidlarimiz jamiyatni yuksaltirmoq uchun yoshlarga ya’ni ayollar va bolalar tarbiya masalalariga yuzlanadilar. Chunki ular yaxshi bilgan millat taraqqiyoti beshikdan, beshik esa ona qo’lidan boshlanadi. Ayol ma’rifatli bo’lsa jamiyat ma’rifatli bo’ladi.

XIXasr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda yuzaga kelgan jadidchilik harakati asosida ayollar masalasi ham alohida o’rin egallagan edi. Chunonchi jadidlar nazarida jamiyat taraqqiyoti avvalo oiladagi muhitga, onaning saviyasiga va ayollarning ma’rifati bilan chambarchas bog’liq edi. Darhaqiqat bir millatni tarbiyalash uchun avvalo onani tarbiyalash kerakdir. Tarbiyani bosh asosi oiladir , ya’ni uy tarbiyasidir. Bola dunyoga kelarkan birinchi galda ko’rgan insoni onadir. Shuning uchun aytadilar biron kishininng xulqi fel- atvori axloqi o’zgarmas ekan „sut bilan kirgandur jon bilan chiqur “ deya. Bir kishi deyurki, „qaysi onalarni aytursiz, bilimsiz, boshi paqmoq, qo’li to’qmoq onalarmi? O’zlarida yo’q tarbiyani qaydan olib berurlar” der.[1] So’zimizning isboti bilan jamiyatda bolalarning tarbiyasi bevosita va bilvosita ayollarning tarbiyasi mahsulidir. Tarbiyaning ham quyidagicha turlari mavjud: badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi, va axloq tarbiyasidir. Dastlabki tarbiyalardan biri hisoblangan badan tarbiyasi bevosita onaning tarbiyasidir. Badanni sog’lom va kuchli qilib mukammal darajaga yetkazmay turib baxt saodatga erisholmaymiz. Tariximizdan ham ko’radigan bo’lsak ibtidoiy davrdan boshlab bolaning sog’lom rivojlanishiga onalar mas’ul bo’lganlar. Chunki bola 9 oy onaning qornida tarbiya topadi xatto onaga tekkan bemorliklar ham bolaga tasir etadi. Shuning uchun bolaning kamolotida onaning barcha jabxalari yeb-ichishidan tortib yurish-turishigacha aloqodordir. Fikr va axloq tarbiyasi ham bolada bosqichma bosqich oilaviy muhit va tevarak atrof asosida shakllanib boradi.Bizning ta’lim tizimimizda xonliklar davridan ko’rishligimiz mumkinki ayollar va qizlar tarbiyasi cheklangan tartibda bo’lgan.Jamiyatda ayollar va qizlar

faqatgina uy yumushlari va oilaga tayyorlov ko’nikmalari asosida o’qitilgan. Jadidlar esa „ bilim olish har bir musulmonning erkak va ayolning burchidir “ deya yechim topadilar. Malumki, odamzod umr davomida diniy va dunyoviy mehnatlar yuki ostida qolib ketgan. Ijtimoiy hayot atrof muhit masalalari jamiiki yer yuzidagi insonlar uchun taaluqlidir. Chunki odam bolasi tarixan shunday shakllangan. Ibtidoiy davrdan boshlab odamzod hayotda yashab qolishi uchun kurashadi. Hoxlaymizmi yuqmi bu tarkib o’zgarmaydi. Hox o’g’il bo’lsin hox qiz balog’atga yetdimi? Tashqi muhitga ijtimoiy hayotga kirib boraveradi.Va bu muvozanatni yuritmoq uchun pulga ehtiyoj sezadi. Jamiyatda erkaklar dunyoviy ishlarning bir qismini bajarishga qanchalik mas’ul bo’lsa ayollar ham shunchalik mas’uldirlar. Dunyoviy ishlarni bajarishda erkak va ayollar o’rtasida farq bo’lmaydi. Lek bir narsani eslatib o’tamizki jamiyatda yurish turishimiz o’zimizning qay xolatda tutishligimiz har bir insonning o’zligiga bog’liqdir. Bahouddin Naqshbandiy aytganlaridek „ Dilba yoru- dastba kor” Yani qalbing Allohda, qo’ling mehnatda bo’lsin deganidir. Jadidlarimiz bizda azaldan shakllanib kelgan bazi bir eskicha qarashlarni ochib berdi. Bizning dinimiz hech qachon dunyoviy bilimlarni o’rganishimizni cheklamaydi aksincha targ’ib etadi. Inson uchun qaysi ilimni egallashidan qat’i nazar umrini to’g’ri yo’lga sarflasa yomon illatlarga xamroh bo’lmasa va insonlarga yaxshiliklar qilsa dinimiz bu ishlarni ulug’laydi. Dinimizda hech qachon ayollarning bilim olishiga to’sqinliklar qo’yilmaydi aksincha rag’batlantiriladi. Diniy majburiyatlar har bir erkak ayol uchun birdek teng bo’lganidek ilim olishimizga ham ayol bo’lganimiz uchun hech qanday to’siq yo’qdir. Shunday ekan jamiyatda ayollarimizni va bolalarimizning tarbiyasida loqayd bo’lmasligimiz kerak. Bola otasining pushti kamaridan ona raxmiga o’tmaguncha er-xotin bir-birlariga faqat hayot sheriklari bo’ladilar.Shu muddatda ularning ishlari bir-birlarining og’irligini yengillashtirishdan iborat bo’lib, boshqa vazifalari bo’lmaydi.[2] Bola tug’ilgandan keyin esa asosiy mas’uliyat onaning zimmasidadir. Bola 7 yoshga to’lguniga qadar ona bolaning dunyoqarashining qay yo’sinda shakllantirishiga aloqadordir.

Har qanday jamiyatning madaniy va manaviy darajasi undagi ayollarga bo’lgan munosabat asosida belgilanadi. Turkiston jadidlarining asosiy maqsadi ham shunga yo’naltirilgan edi. Xususan Turkiston jadidlarining otasi Mahmudxo’ja Behbudiy 1915-yilda „Oyna” jurnalining 11-12-sonlarida nashr etilgan „ Til masalasi” maqolasida „ Taraqqiy etgan millatlarni onalari o’qitar ekan, biz avval onamizni o’qutub, anga til o’rgatmoqimiz kerak. Chunki bizni ilm va tilsizligimiz alardandur”[3] deb ayollar tarbiyasi va millat tarbiyasi haqida qayg’uradi. Shuningdek Jadidlar ayollar masalasidagi bazi bir xolatlarni ochib beradilar. Jumladan juda yosh qizlarni erta turmushga berishlik, holatlatlarini tanqid ostiga oladilar. Nikohda qizning roziligi, tarbiya va ong masalalarini muhimligini, jamiyatda ko’p xotinlilikni tanqid ostiga oladilar. Xususan Abdulhamid Cho’lponning „ Kecha va Kunduz” romanidagi tarixiy holatlar o’sha zamonning ayollarga nisbatan achinarli va ayanchli xarakteriskasidir. Jadidlar ayollarga nisbatan ma’rifat yo’lini ochishga, qizlar ta’limini qo’llab quvvatlashga va ayolning jamiyatdagi qadrini oshirishga yo’naltirilgan bir qator islohotlarni amalga oshira olishi bu zamonasi uchun haqiqiy yangilik edi. Shu tariqa ayollar asta sekinlik bilan jadid yangi usul maktablarida o’gil bolalar bilan birgalikda diniy ilimlar bilan bir qatorda dunyoviy ilimlardan ham o’qitila boshlandi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak qachonki millat ayollari bilimsiz ongsiz va saviyasiz bo’lib shakllanar ekan hech qachon jamiyat yoshlarini o’zgartirib bo’lmaydi. Bundan ko’rinadiki xalqning ertasidan umidi bo’lmasligini. Chunki butun bir davlatni o’zgartirish bugungi kun yoshlari qo’lidadir. Ayol tarbiyasi bu- butun bir millat tarbiyasidir. Respublikamizda ham so’ngi yillarda ayollarni ijtimoiy jihatdan qo’llab quvvatlash, ulardagi ta’lim- tarbiya jarayonlarini rag’batlantirish, jamiyatdagi mavqeyini ko’tarish, oiladagi o’rnini mustahkamlash borasida keng ko’lamli islohotlar olib borilmoqda. Yurtboshimiz mamlakatimizda jadidlarimiz orzu qilganidek jamiyat asosini yaratish uchun uchinchi renessans poydevorini barpo etmoqda. Xususan mamlakatda fan talim madaniyat rivojlanar ekan yuksalishdan also to’xtamaydi. Zero najot ta’limdadir, najot tarbiyadadir. Prezidentimiz aytganlaridek „ Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo’lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. Biz yangi O’zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyatdir” .

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1.Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. -Toshkent:O’qituvchi nashriyoti,1992.

2. Fitrat.A.Oila yoki oilani boshqarish tartiblari.-Toshkent:Ma’naviyat,2000.-B.

3. Mahmudxo’ja Behbudiy. Til masalasi // ‘ ‘Oyna” jurnali. 1915. B. 274-277. https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/jadid-matbuoti/mahmudxo-ja-behbudiy-til-masalasi-1915